



МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

Илимий-методикалық журнал

№ 5/1 2025

гуманитарные науки
естественные науки
технические науки



МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



Илимий-методикалық журнал

2025

5/1-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоғарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ғәм хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы ғуўалық берилген.*

Нөкис

5/1-сан 2025
сентябрь-октябрь

*Қарақалпақстан Республикасы мектепке шекемги хәм мектеп билимлендириўи
министрлиги, Қары Ниязий атындағы Тәрбия педагогикасы миллий институты
Қарақалпақстан филиалы*

Редактор:
А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ
Сапардурды АБАЕВ
Адхамжон АБДУРАШИТОВ
Хайрулла АЛЯМИНОВ
Мавлюда АЧИЛОВА
Азизжан АБДАЗИМОВ
Шухрат АБДУЛЛАЕВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ
Злийха ОРАЗЫМБЕТОВА
Мансурбек ОНГАРОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ
Тўлқин АЛЛАЁРОВ
Марифжон АХМЕДОВ
Гулзабира БАБАШЕВА
Умида БАҲАДИРОВА
Фархад БАБАШЕВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА
Гулбахар БЕКИМБЕТОВА
Комил ГУЛЯМОВ
Маманазар ДЖУМАЕВ

Асқар ДЖУМАШЕВ
Дилдора ДАВРОНОВА
Мухтар ЕРМЕКБАЕВ
(Шимкент, Қазақстан)
Масуда ЗАЙНИТДИНОВА
Алишер ЖУМАНОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Айсулу ЖАНАБЕРГЕНОВА
Холбой ИБРАГИМОВ
Шохида ИСТАМОВА
Вохид КАРАЕВ
Алима КЕНЖЕБАЕВА
(Тараз, Қазақстан)
Сарсенбай КАЗАХБАЕВ
Мохира КУВВАТОВА
Комилжон КАРИМОВ
Джавдод ПЎЛАТОВ
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ
(Шимкент, Қазақстан)
Меруерт ПАЗЫЛОВА
Барлыкбай ПРЕНОВ
Пердебай НАЖИМОВ
Искендер НАЖИМОВ

Аскарбай НИЯЗОВ
Сабит НУРЖАНОВ
Захия НАРИМБЕТОВА
Хушбоқ НОРБЎТАЕВ
Ойниса МУСУРМОНОВА
Уролбой МИРСАНОВ
Сафо МАТЧОН
Шукурилло МАРДОНОВ
Абдулхамид МИРЗАЕВ
Шахло МИРЗАЕВА
Дармонжон МАХМУДОВА
Абдимурат ЕСЕМУРАТОВ
Даулетназар СЕЙИТКАСЫМОВ
Қалыбай ПРИМБЕТОВ
Раъно ОРИПОВА
Бахтиёр РАХИМОВ
Норим РАХМАНОВ
Муқаддас РАХМАНОВА
Светлана СМЕРНОВА
(Москва, Россия)
Тажибай САПАРБАЕВ
Мухаббат САЛАЕВА
Гўзал СОДИҚОВА
Улбосын СЕЙТЖАНОВА
Айдын СУЛТАНОВА
Амина ТЕМИРБЕКОВА
Нурзода ТОШЕВА
Куанишбек ТУРЕКЕЕВ
Тажибай УТЕБАЕВ
Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Амангелди КАМАЛОВ
Тажикал КУДАЙБЕРГЕНОВА

Дилором ШАМСИЕВА
Ойбахор ШАМИЕВА
Ризамат ШОДИЕВ
Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
Гулрухсор ЭРТАШЕВА
Гавхар ЭШЧАНОВА
Қонысбай ЮСУПОВ
Гулара ЮСУПОВА
Содиқ ЮЛДАШЕВ
Фарҳад РЎЗИЕВ
Аъзам ХОЛМУРАДОВ
Марат ХОДЖАНОВ
Мухлиса ХАФИЗОВА
Шохиста БЎРАНОВА
Мухаббат ХУДАЯРОВА
Қалбай СЕЙТМУРАТОВ
Азамат БЕКИМБЕТОВ
Гўзал НАЗИРОВА
Козим МАЛИКОВ
Ғиёсиддин ХУДОЙБЕРДИЕВ
Шакир УРИШОВ
Назифа АЧИЛОВА
Гулназ ТЛЕУМУРАТОВА
Мадияр СУЛТАНИЯЗОВ
Сансызбай САПАРНИЯЗОВ
Гулчеҳра АЙТБАЕВА
Байнияз МАМБЕТКАРИМОВ
Ботир БОЙМЕТОВ



Мамадалиев К.Р. Интерактив электрон таълим тренажёрларини ва электрон дарсликларни яратиш-ҳозирги куннинг истиқболлари мисолида	330
Наримбетов Б.Ж., Примов Х.С. и др. Взаимосвязь фазовых переходов, поверхности Ферми, магнитных и сверхпроводящих свойств органического проводника (BEDO-TTF) ₂ ReO ₄ •H ₂ O	335
Отемуратов Б.П., Кутлымуратов Б.Ж. Семейство комплексных прямых, проходящих через кусок порождающего многообразия, лежащего вне области	341

БАСЛАҒЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

Janiyazova U.M. Kishi jastağı balalardıń ekologiyalıq tárbıyasında xalıq qosıqların, naqıl-maqallardı hám jumbaqtı paydalanıw	346
Mansurova M.K. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida taqlidiy o'yinlar orqali liderlik sifatlarini rivojlantirish metodikasi	351
Qudanova Z.S. O'quvchi yozma savodxonligini oshirishda didaktik o'yin texnologiyalari	363
Tilavova S.B. Tabiiy fanlarni o'qitishda boshlang'ich sinf o'quvchilarida dastlabki pedagogik immunitetni hosil qilish metodologiyasi	373
Jabborova O.M. Boshlang'ich sinflarda texnologik jihozlar tayyorlash zaruriyati	378
Dehqonboyev M.T. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining 5e modeli asosida tabiiy fanlar darsini loyihalash	383
Kuchkinov A.Y. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda pedagogik immunitetni rivojlantirish texnologiyasi	391
Sayliyeva M.M. Kichik maktab yoshidagi bolalarda krititsizm ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali usullari	396
Xikmatov A.S. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy motivatsiyasiga ta'sir etuvchi psixologik, pedagogik va ijtimoiy omillar	402
Tilovov Sh.A. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning mustaqil ta'limini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etishni pedagogik shartlari	409
Jabborova O.M. Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda metodik yangilanishlar jarayoni	414
Karimjonova D.A. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining axborot kompetentligini rivojlantirish	419
Abdulkhimova F.T. Boshlang'ich sinf o'quvchilarda atrof olamga nisbatan mas'uliyatlilikni shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	424
Jo'rayev F.R. O'quvchi-yoshlarda xalq og'zaki ijodi na'munalari vositasida mehnatsevarlikni tarbiyalashning amaliy ahamiyati	431
Baynazarova J.J. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matn yaratish ko'nikmasini shakllantirish pedagogik muammo sifatida	438

СҮҮРЕТЛЕҮ ӨНЕРИ ҲАМ МУЗЫКА

Malikov K.G. Ko'rinishlar mavzusini o'qitishda innovatsion metodlar qo'llash orqali talabalarni kreativligini oshirish	444
Sharipova L.A. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashning didaktik imkoniyatlari	453

СОЦИАЛҒЫҚ ПЕДАГОГИКА

Таджетова С.Ш. Юбилей ҳам байрамларды үйрениўдиң өзгешеликleri	458
Saparbaev T. Sha'naqaqta bala tárbıyasında ata-analar úlgisi	465
Doniyorov Sh.X. Ahmad Lutfi Qozonchining "o'gay ona" romanida psixologik konflikt talqini	470
Maxmudova D.B. Talabalarining kasbiy tafakkurini innovatsion texnologiyalar vositasida boyitish	476



MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA METODIK YANGILANISHLAR JARAYONI

Jabborova O.M

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrası dotsenti*

Tayanch so'zlar: maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, metodik yangilanish, jarayon, yondashuv, bilim, ko'nikma, samara.

Ключевые слова: дошкольное образование, начальное образование, методическое обновление, процесс, подход, знания, навыки, эффективность.

Keywords: preschool education, primary education, methodological update, process, approach, knowledge, skills, effectiveness.

PEZIOME:

Maqolada maktabgacha va boshlang'ich ta'limda bugungi kunda bo'layotgan metodik yangilanishlar jarayoni to'g'risida fikr yuritilgan hamda muallifning yondashuvlari taqdim qilingan.

PEZIOME:

В статье осмыслен процесс методических инноваций, происходящих сегодня в дошкольном и начальном образовании, представлены подходы автора.

SUMMARY:

The article discusses the current processes of methodological updates in preschool and primary education and presents the author's approaches.

Yangi O'zbekiston taraqqiyoti sharoitida mamlakatimizda maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'limda sifat ko'rsatkichlarini ta'minlash eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Bunda 2030 yilga qadar bolalarning tarbiyalanganlik ko'rsatkichlari va o'quvchilarning o'zlashtirish ko'npikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega [1;33]. Shu jihatdan bugungi kunda maktabgacha va boshlang'ich ta'limda metodik yangilanishlar jarayonini kuzatish, tahlil qilish va idrok etish dolzarb bo'lib turibdi. Mazkur o'rinda ana shu masalaning tahliliga e'tiboringizni tortamiz.

Maktabgacha ta'lim metodikasida yangilinishlar jarayoni. 2017 yildan boshlab mamlakatimizda maktabgacha ta'lim mazmuni, funksiyasi va uning ta'lim tizimidagi maqomi butunlay yangilandi. Oradan o'tgan 7 yil vaqt



ichida maktabgacha ta'limda bolalarni o'qishga tayyorlash, ularning ijtimoiy tarbiyasini yo'lga qo'yish va moslashtirish masalalari bo'yicha yangicha yondashuvlar amaliyotga joriy etildi[2;11]. Shu jihatdan bugungi kunda maktabgacha ta'lim metodikasida yangilanishlar jarayoni boshlanganligini alohida ta'kidlash lozim. Bunday yangilanishlarning negizlarini quyidagilar tashkil qiladi:

- 1) maktabgacha ta'lim mazmunidagi metodik o'zgarishlar;
- 2) maktabgacha ta'limning jarayonidagi metodik o'zgarishlar;
- 3) maktabgacha ta'limda bolalarni ijtimoiylashtirishdagi metodik o'zgarishlar.

Maktabgacha ta'lim mazmunidagi metodik o'zgarishlar mazkur ta'lim bosqichining ta'lim tizimidagi funksional vazifalarni chuqurlashtirish, ta'limning samaradorligini oshirish va mazkur yoshdagi bolalarni to'liq qamrab olish bilan belgilanadi. Ushbu masalalar bo'yicha yangi avlod metodik tavsiyalarini ishlab chiqish hamda amalga kiritish dolzarb bo'lib turibdi. Misol uchun, bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimidagi funksional vazifalarning yangilanishi, ya'ni bolalarni bilim olamiga olib kirish va ularni maktabga tayyorlash masalasida individual metodikalarni joriy etish dolzarb bo'lib turibdi. Shu jihatdan maktabgacha ta'lim mazmunidagi metodik o'zgarishlar bo'yicha yangi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish taqozo etiladi.

Maktabgacha ta'lim jarayonidagi metodik o'zgarishlar bolalarni tarbiyalash, ular bilan individual ishlash va ularning qobiliyatlarini rivojlantirish masalalariga yangicha yondashuvlar bilan munosabatda bo'lishga asoslanadi. Bu jaaryondagi metodik o'zgarishlarni individuallikdan umumiylikka tamoyili asosida tadbqiq etish muhim ahamiyatga egadir. Misol uchun, nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim jarayoni metodikasini, ya'ni har bir bola bilan individual shug'ullanish munosabatlarini davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari jarayoniga taqdim etish dolzarb bo'lib turibdi. Buning uchun davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar qamrovini optimallashtirish va bu borada yangi avlod metodik tadqiqotlarini yaratish taqozo etiladi.

Maktabgacha ta'lim jarayonidagi bolalarni ijtimoiy jihatdan moslashtirish metodikasida ham yangilanishlar yuzaga kelmoqda. Bunda ayniqsa, har bir tarbiyalanuvchini jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda individuallashtirish, inklyuziv ta'lim oluvchi bolalarni tengdoshlari bilan birgalikda ijtimoiylashtirish va eng asosiysi oilada boshlangan tarbiya jarayonini ta'lim qonuniyatlari asosida optimallashtirish dolzarb bo'lib turganligini ta'kidlash lozim. Misol uchun, bugungi kunda maktabgacha ta'limdagi tarbiyalanuvchilarni ijtimoiylashtirishda, ularning kompyuter vositasidagi ma'lumotlardan to'g'ri



foydalanish ko'nikmasini tarkib toptirish ijtimoiylashtirishning asoslaridan biri bo'lib turibdi. Shu ma'noda kompyuter, planshet, mobil aloqa vositasi kabi texnik vositalardan foydalanish madaniyati bo'yicha maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarining ko'nikmasini tarkib toptirish maasalalariga doir yangi metodik tadqiqotlar yaratish muhim ahamiyatga egadir.

E'tibor berilsa, maktabgacha ta'lim metodikasida bo'layotgan bunday yangilanishlar jarayonini oliy pedagogik ta'lim muassasslaariga tadbiq etib borish va muvofiqlashtirish tizimini yo'lga qo'yish dolzarb masalalardan biridir.

Boshlang'ich ta'lim metodikasida yangilanishlar jarayoni. Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim bosqichi ta'lim tizimidagi savodxonlik ko'nikmasini tarkib toptirishning asosi hisoblanadi[3;64]. Shu jihatdan bugungi kunda boshlang'ich ta'lim metodikasida yuz berayotgan quyidagi yangilanishlar jarayonini ta'kidlab o'tish lozim:

1) boshlang'ich sinf o'quvchilarini individual rivojlantirishni kuchaytirish metodik yangilanishlari;

2) boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini o'qitishdagi metodik yangilanishlar;

3) boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodikasini yangilab borishga doir metodik yangilanishlar.

Mamalkatimizda boshlang'ich sinf o'quvchilarni individual rivojlantirish bo'yicha metodik yangilanishlar jarayoni kechmoqda. Bunda ularning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini optimallashtirish, layoqat va qiziqishlariga ko'ra bilim ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ularning tashabbuslari asosida qobiliyatlarini guruhli rivojlantirish bo'yicha muhim metodik rivojlanishlar jarayoni kechmoqda. Bu borada ham, misol uchun, nodavlat boshlang'ich ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarni individual rivojlantirish bo'yicha o'ziga xos tajriba yuzaga kelganligini eslatib o'tish joiz. Chunki bu jarayonda mazkur ta'lim bosqichida o'quvchilar miqdorining optimalligi kutilgan samarni bermoqda. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarining individual rivojlanishishi bo'yicha davlat ta'lim muassasalaridagi boshlang'ich sinf bosqichida har bir bola bilan individual ishlash bo'yicha metodikalar tizimini kuchaytirish taqozo etiladi.

Boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini o'qitish jarayonida ham metodik yangilanishlar jarayoni kechmoqda. Bunda har bir turkumdagi o'quv fani bo'yicha individual o'qitish uslublarining paydo bo'lganligi, o'quvchilarni fanlar turkumi bo'yicha bilim va ko'nikmalarini alohida rivojlantirish yondashuvlari tarkib topganligi hamda uzaytirilgan o'quv jarayonining yuzaga kelganligi muhim metodik yangilanishlar sifatida ko'zga tashlanmoqda. Misol uchun, aniq fanlar bo'yicha o'qitish metodikasiga doir tarkib topgan tajribali



gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida ham tadbiq etish dolzarb bo'lib turibdi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim jarayonida gumanitar va tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida laboratoriya metodlariga o'tish dolzarb bo'lib turganligini ta'kidlab o'tish lozim.

Mamlakatiimizda faoliyat yuritayotgan boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'ziga xos o'qitish va tarbiyalash metodikalariga ega. Shu sababli boshlang'ich ta'lim jarayonida bo'layotgan samaradorlik qoniqarli darajadadir. Ayni paytda, boshlang'ich ta'lim jarayonida bo'layotgan yangilanishlar hisobga olinib mamlakat miqyosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'qitish va tarbiyalash metodikalarini optimallashtirish, samarali individual metodikalarni tajriba tariqasida amaliyotga joriy etish, hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan ilg'or boshlang'ich sinf o'qituvchilarining individual metodikalarini targ'ibot qilish va Respublika miqyosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tajriba almashishini yo'lga qo'yish metodik yangilanishlar negizini tashkil qiladi. Misol uchun, respublika miqyosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tajriba almashishini onlayon yoki pedagog kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish kurslari vositasida yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga egadir. Chunki metodik tajriba almashish individual metodikaning jamiyat miqyosida ommalashib va yangilanib borishiga asos bo'ladi.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich ta'lim jarayonida bo'layotgan metodik yangilanishlar maxsus tadqiqotlar yaratishni taqozo etadi. Buning uchun oliy pedagogik ta'lim muassasalarida muvofiqlashtiruvchi tadqiqotlar tizimini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasidagi yangilanishlar uyg'unligi. Mamlakatimiz maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasidagi hozirgi zamon yangilanishlari o'ziga xos uyg'unlikka ega. Bunday uyg'unlikning asosiylarini quyidagilar tashkil qiladi:

- 1) tarbiya va o'qitish samaradorligiga erishish uyg'unligi;
- 2) maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari va boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik uyg'unligi;
- 3) ta'lim va tarbiyaning yangilanib borish uyg'unligi.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim jarayonida bo'layotgan metodik yangilanishlar tarbiya va o'qitish samaradorligiga erishish bo'yicha uyg'unlikka ega. Buning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tarbiya va o'quvchilarni maktab ta'limiga tayyorlash jarayoni boshlang'ich ta'lim jarayoni metodikalari bilan moslashtirilishi hamda uyg'unlashtirilishi muhim ahamiyatga egadir. Shu sababli maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikalari uyg'unligi bo'yicha amaliy-metodik tadqiqotlarni yaravtish dolzarb bo'lib turibdi.



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari va boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv hamda tarbiya jarayonidagi metodik uyg'unligi ham mavjud. Bunda asosiy masala bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash va boshlang'ich ta'lim jarayonida ularning bilim hamda ko'nikmalarini shakllantirishda uzviy bog'liqlik muhim o'rin tutmoqda. Ayni paytda, mazkur toifa pedagoglarning o'zaro metodik tajriba almashishini yo'lga qo'yish, ularning birgalikdagi o'quv – seminarlarini tashkil qilish hamda ushbu toifa pedagoglarning qo'shma metodik birlashmalari faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va boshlang'ich ta'lim bosqichida ta'lim va tarbiya jarayonidagi yangilinishlar uyg'un kechmoqda. Bunda boallarning ijtimoiylashuvi, o'quvchilarning ijtimoiy faollashuvi hamda bilim va ko'nikmalarni egallashidagi uyg'unlik e'tiborga sazovor. Ayni paytda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining 4-5 yoshlilarini dastlabki bosqichda boshlang'ich sinflar bilan o'zaro bog'liqlikda faoliyatini yo'lga qo'yish mavqsadga muvofiq bo'ladi, ya'ni, bola maktabga 1 sentyabrda emas, balki 5-6 yoshda maktab bilan tanishgan bo'lishi kerak. Shu tariqa maktabgacha va boshlang'ich ta'limdagi ta'lim hamda tarbiya uyg'unligini takomillashtirishga doir tashkiliy-metodik tadqiqotlar majmuini yaratish dolzarb bo'lib turibdi.

E'tibor berilsa, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim jarayonidagi yangilanishlarning uyg'unligi hamda yangicha metodikalarning tarkib topayotganligi o'zaro bog'liqlikka egadir. Shu jihatdan oliy pedagogik ta'lim muassasalarida mazkur masalalar bo'yicha metodik tavsiyalarni ishlab chiqish taqozo etiladi.

Shunday qilib maktabgacha va boshlang'ich ta'lim jarayonida kechayotgan metodik yangilanishlar muvoffaqiyatlarni umumlalashtirish, samaradorlik ko'rsatkichlarini muvofiqlashtirib borish va yangi avlod ilmiy metodik tadqiqotlarini yaratish taqozo etadi. Chunki maktabgacha va boshlang'ich ta'lim jarayonidagi metodik yangilanishlar hodisasi mazkur ta'olim bosqichlaridagi nazariy o'zgarishlarga asos bo'ladi. Buning uchun oliy pedagogik ta'lim muassasalarida maktabgacha va boshlang'ich ta'lim muammolari bo'yicha yangi avlod tadqiqotlarini yaratish dolzarb bo'lib turganligini eslatib o'tish joiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "O'zbekiston-2030" strategiyasi. – Toshkent, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimi. Metodik-uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2024.
3. Jabborova O. Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2023.